

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MIRZAYEV ZOYIR TOIROVICH

**KORXONALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING MOLIYAVIY
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Economical sciences**

Mirzayev Zoyir Toirovich

Korxonalarni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlarini
takomillashtirish..... 3

Мирзаев Зоир Тоирович

Совершенствование финансовых механизмов поддержки предприятий.... 29

Mirzaev Zoyir Toirovich

Improving financial mechanisms for enterprise support 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MIRZAYEV ZOYIR TOIROVICH

**KORXONALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING MOLIYAVIY
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B 2023.4.PhD/Iqt3498 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Gadoyev Erkin Fayziyevich

iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Kuziyeva Nargiza Ramzanovna

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xaydarov Nizomiddin Xamrayevich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “__” _____ soat __dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Iclom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “__” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “__” _____ dagi __raqamli reestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida korxonalarni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, kichik va o‘rta biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash hamda innovatsion faoliyatni kengaytirish orqali umummilliy va mintaqaviy rivojlanishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. “Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan xususiy sektorga investitsiyalarni jalb qilish, kichik va o‘rta biznes korxonalari va agro tarmoqni rivojlantirishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida birgina 2023-yilda 43,7 mlrd.doll. mablag‘ ajratgan bo‘lsa, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi tomonidan a‘zo davlatlarning milliy iqtisodiyot doirasidagi korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvat uchun ajratadigan kredit olish talablarini yumshatib bormoqda va gumanitar yo‘nalishdagi dasturlarni qo‘llash uchun mablag‘lar hajmini oshirib bormoqda”¹. Bunda subsidiyalar, davlat kafolatlari, foizsiz kreditlar, soliq imtiyozlari va venchur moliyalashtirish singari moliyaviy instrumentlarning maqsadli va shaffof mexanizmlar asosida joriy etilishi korxonalarining likvidlik darajasini oshirish, investitsiyaviy jozibadorlikni mustahkamlash va bozordagi raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Jahonda korxonalarni qo‘llab-quvvatlash moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari sifatida moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish, davlat-xususiy sheriklikni moliyalashtirish modellarini rivojlantirish, kredit xavfini baholashda zamonaviy analitik instrumentlar (AI, Big Data)dan foydalanish, “yashil” va barqaror moliya mexanizmlarini tatbiq etish, biznesni raqamli moliya xizmatlari orqali qo‘llab-quvvatlash hamda pandemiya va geosiyosiy xatarlar sharoitida inqirozga qarshi moliyaviy chora-tadbirlar samaradorligini baholash yo‘nalishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu tadqiqotlar korxonalarining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta‘minlash, moliyaviy resurslarga yetarli va uzluksiz kirish imkoniyatini yaratish hamda iqtisodiy o‘shishning inklyuziv modellarini shakllantirishga qaratilgan.

O‘zbekistonda korxonalarni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish borasida belgilangan vazifalar qatorida kichik va o‘rta biznes subyektlarini imtiyozli kreditlar bilan ta‘minlash, davlat kafolatlari va subsidiyalar mexanizmlarini soddalashtirish, venchur va startap loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish, investitsiyaviy loyihalarni moliyalashtirish uchun lizing va faktoring xizmatlarini rivojlantirish hamda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) platformalarini keng joriy etish kabi yo‘nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar qatorida Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy resurslarni olishda qulay shart-sharoitlar yaratish, raqamli moliya xizmatlarini keng joriy etish va kredit-kafolat institutlarini mustahkamlash singari institutsional islohotlar orqali biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan kompleks islohotlar izchil amalga

¹ <https://www.imf.org>.

oshirilmoqda. Korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash borasida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llashning yangicha uslubiyotlarini ishlab chiqish va muammolarning ilmiy yechimlariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga ehtiyojni kuchaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 7-sentabrdagi PF-6306-son "Eksporthi korxonalarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 21-oktabrdagi PF-6091-son "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6096-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-son "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" farmonlari, 2021-yil 13-iyuldagi PQ-5184-son "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida"gi, 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-son "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2017-yil 7-iyundagi PQ-3042-son "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to'g'risida" qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son "2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashning nazariy-uslubiy masalalari bo'yicha juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan D.Rikardo, U.Petti, Dj.M.Keyns, F.Kene, Dj.S.Mill, K.R.Makkonell, E.Seligman, R.Sturm, Y.G.Sheina, A.I.Kravchenko, A.O.Popova, M.A.Arzumanov, V.Y.Krivdina, N.E.Kilin, S.A.Konoplev, M.K.Chernyakov, A.A.Osipov, L.V.Tatarinova, T.S.Yashenko, R.Tairov, V.Filonenko, N.E.Zayas, N.V.Voytolovskiy, R.R.Burxanova, M.V.Ferafortova, E.A.Adrxaeva, A.E.Levina, D.N.Moseva, A.A.Yasakova, V.D.Gerasimova va boshqa olimlar tomonidan moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashning nazariy-uslubiy masalalari o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan talqin qilingan².

² Рикардо Д. Начала политической экономии и податного обложения. Перевод с английского под редакцией Н. Рязанова. – Москва: изд. «Звено», 1910., Петти У. «Трактат о налогах и сборах. Verbum sapienti — слово мудрым. Разное о деньгах». – М.: Ось-89, 1997, Финансы, денежное обращение и кредит. /Под редакцией

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar A.Bekmuradov, M.Boltabayev, D.Mirzaxalilova, D.Kurbanova, K.Xonkeldiyeva, I.Ochilov, I.Toshpulatov, S.B.Maxmudov, I.A.Bakiyeva, F.I.Choriyev, A.M.Batirbekova, J.N.Kosimov, F.T.Yuldoshev, E.F.Gadoyev, T.S.Malikov, N.H.Xaydarov, J.J.Urmonov, I.M.Niyazmetov, T.Malikov, B.Toshmurodova, U. H.Normurzayev, A.Toshqulov, M.Xaydarov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida respublika moliya-kredit mexanizmlari orqali korxonalarni qo‘llab-quvvatlash borasida masalalar tadqiq qilingan, ilmiy xulosalar berilgan va ayrim ilmiy tavsiyalar keltirilgan³.

проф. М.В.Романовского. Учебник. 3-е. издание. – М.: Юрайт. 2018. -523 с., Лукасевич И.Я. Финансовый менеджмент. Учебное пособие. – М.: Эксмо. 2016. -552 с., Селигман Э. и Стурм Р. Этюды по теории обложения. – СПб., 1908, с. 9., Шеина Е.Г. Финансово-кредитный механизм поддержки малых и средних инновационных предприятий. Специальность 08.00.10 – «Финансы, денежное обращение и кредит»: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Екатеринбург, 2012, с.24., Кравченко А.И. Формы и методы финансовой поддержки малого бизнеса. Специальность 08 00 10 – «Финансы, денежное обращение и кредит»: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Санкт-Петербург, 2008. – 27 с., Попова А.О. Формы и методы финансово-кредитной поддержки среднего бизнеса в Российской Федерации. Специальность 08.00.10 – «Финансы, денежное обращение и кредит»: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 22 мая. – Санкт-Петербург, 2009. – 19 с., Арзуманов М.А. Развитие финансово-кредитной поддержки малого и среднего предпринимательства. Специальность 08.00.10. – «Финансы, денежное обращение и кредит»: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва, 2008. – 29 с., Кривдина В.Ю. Финансирование инновационной деятельности предприятий эксклавного региона. Специальность 08.00.10 – «Финансы, денежное обращение и кредит»: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Санкт-Петербург, 2003. – 23 с., Вестник университета № 11, 2021 УДК 338.246JEL N12, N 25 DOI 10.26425/1816-4277-2021-11-66-72, Килин Н.Э. Правовое регулирование инновационной деятельности субъектов малого и среднего предпринимательства: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – М., 2011. – 9 с., Коноплев С.А. Правовой режим субъектов малого предпринимательства. Автореферат диссертации кандидата юридических наук. – М., 2006. – 6с.; Максимцов М.М., Горфинкель В.Я. Менеджмент малого бизнеса. – М.: Вузский учебник, 2012. – 118с., Черняков, М.К., Осипов, А.А. Программы, направленные на поддержку малого бизнеса в связи с пандемией 2020 года. // Финансовые рынки и банки. – 2020. – № 2. – С. 19–21., Татарина Л.В., Яценко Т.С. Малый и средний бизнес в период пандемии в России: поддержка со стороны государства и банковского сектора, в частности. // Integral. – 2020. – № 3. – С. 420–428., Герасимова, В. Д. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности промышленного предприятия: учеб. пособие / В. Д. Герасимова. – Москва: Кнорус, 2015. - 360 с. - 477.

³ Бекмуратов А.Ш., Янг Сон Бэ. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана. Кластерный подход. – Т., 2006. – 247 с.; Курбанова Д.М. Перспективы формирования инновационных кластеров в Узбекистане. // Рынок, деньги и кредит. - 2011 - №1. – С. 43.; Мирзахалилова Д.М. Повышение конкурентоспособности промышленности Узбекистана на основе кластеризации (на примере текстильной промышленности). Дисс. на соиск. канд. экон. наук.; Болтабаев М.Р. Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноати экспорт имкониятларини ривожлантиришда маркетинг стратегияси. – Тошкент: ТДИУ, 2005. – 113 б.; Хонкелдиева К. Тўқимачилик саноати кластерлари фаолиятида бошқарув механизмларини такомиллаштириш. 08.00.13 – “Менежмент”, 08.00.03 – “Саноат иқтисодиёти”. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021 й., Очиллов И.С. Кластер тизимида инновацион самарадорлик масалалари. // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. 2-сон, март-апрель, 2019 йил, Maxmudov S.B. Logistika tizimidagi korxonalarni moliyalashtirishni takomillashtirish. 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 59 б., Xusanov Q.N. Transformatsiyalash jarayonida korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishlari. 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024-y., 74 б., Bakiyeva Iroda Abdushukurovna. Korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024-y. – 75 б., Choriyev F. I. Davlat ulushi mavjud bo‘lgan korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash yo‘nalishlari. 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferat. – Toshkent, 2023-y. 59. б., Batirbekova A.M. “O‘zbekiston temir yo‘llari” ajni moliyaviy va tashkiliy rivojlantirish usullari. 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”. Iqtisodiyot bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 59 б., Yuldashev F.T. Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash yo‘llari. 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”.

Mahalliy olimlarning mavzu doirasidagi ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilganda F.Choriev, A.Botirbekova, F.Yuldoshev, J.Kasimov va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarini ham alohida ta'kidlab o'tish joiz. Jumladan, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori F.Choriyev davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularni tartibga solish hamda bu boradagi jarayonlarni isloh qilishda, ularning faoliyati bo'yicha maqsadlar va javobgarliklarni aniqlashni "dual modeli" orqali amalga oshirish mexanizmi borasida ilmiy takliflar ishlab chiqqan⁴.

Biroq korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashning nazariy-uslubiy masalalariga bag'ishlangan yaxlit ilmiy tadqiqot ishlari yetarlicha amalga oshirilmagan. Bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash bilan ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- korxonalarni moliyalashtirishning ilmiy nazariy jihatlarini ko'rsatib berish;
- korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy-iqtisodiy genezisini ilmiy asoslash;
- davlat tomonidan korxonalarni qo'llab-quvvatlash moliya-kredit mexanizmlarining samaradorlik mezon ko'rsatkichlarini ko'rsatish;
- davlat tomonidan korxonalarni qo'llab-quvvatlashning moliya-kredit mexanizmlari yo'nalishlarining nazariy asoslarini ilmiy asoslash;
- moliya-kredit mexanizmi amal qilish algoritmining ilmiy asoslarini yoritish;

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. - 64 b., Гадоев Э.Ф. ва б. Билвосита солиқлар: қўшилган қиймат солиғи, акциз солиғи. – Тошкент: NORMA, 2011. – 327 б.; Тошматов Ш.А. Қўшилган қиймат солиғи. Монография. – Тошкент: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2004. -160 б.; Маликов Т.С., Ҳайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Ўқув қўлланма. – Т.: Iqtisod-moliya, 2009. - 556 б.; Азимов С.С. "Камерал солиқ текширувини ташкил этишда ташқи манба маълумотларидан самарали фойдаланиш" мавзусидаги PhD илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация, 2022 йил., Урмонов Ж.Ж. (2018), Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини солиқ механизми воситасида тартибга солишни такомиллаштириш масалалари. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. 27-38-б. Маликов Т.С. Солиқлар ва солиққа тортишнинг долзарб масалалари. – Т.: Академия, 2000. – 276 б.; Тошмуродова Б.Э. Солиқлар воситасида иқтисодиётни бошқариш механизми: Монография. – Т.: Янги аср авлоди, 2002. – 127 б.; Нормурзаев У.Х. Солиқ имтиёзларининг самарадорлиги: назария, методология ва амалиёт. Дисс. автореферати. – Т., 2022., Яхёев Қ.А. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. – Т.: Фан ва технологиялар маркази, 2003. – 247 б.; Ҳайдаров Н.Х. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солиқ муносабатларини такомиллаштириш масалалари // и.ф.д. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т. 2003. – 34 б.

korxonalarni moliya-kredit mexanizmi orqali davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga oid ilmiy tadqiqotlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish;

korxonalarni moliya-kredit mexanizmi orqali davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning amaliy holatini tahlil qilish;

korxonalarni moliya-kredit mexanizmi orqali davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlil qilish;

korxonalarni moliya-kredit mexanizmi orqali davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasidagi mavjud muammolarni aniqlash;

korxonalarni moliya-kredit mexanizmi orqali davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlari o'rtasida mutanosib taqsimlash bilan bog'liq jarayonlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti O'zbekistonda korxonalarni moliya-kredit mexanizmi orqali qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, reyting baholash, statistik guruhlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Savdo-sanoat palatasi qoshida tadbirkorlik subyektlariga xalqaro moliya institutlari, xorijiy moliya tashkilotlari va boshqa kredit tashkilotlaridan davlat kafolatisiz mablag'lar jalb qilish bo'yicha konsalting xizmatlari ko'rsatuvchi Tadbirkorlarga tashqi moliya bozorlariga chiqishga ko'maklashish markazini tashkil etish taklifi ishlab chiqilgan;

tikuv-trikotaj, poyabzal va charm-attorlik sanoati yo'nalishlarida ishlab chiqarish faoliyatini yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun foyda solig'i stavkasini 2 foiz va ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz darajasida belgilash orqali korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash amaliyotini rag'batlantirish asoslangan;

nobank kredit tashkilotlariga jismoniy shaxs bo'lgan ta'sischilardan amaldagiga nisbatan 2 baravar ko'p miqdorda qarz mablag'larini jalb qilishga ruxsat berish tartibini joriy qilish orqali korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash taklifi asoslangan;

nobank kredit tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bir yoki bir nechta bitim natijasida nobank kredit tashkilotining ustav fondidagi o'n foizdan yigirma foizgacha tashkil etadigan ulushini bevosita yoki bilvosita olinganda Markaziy bankni xabardor qilish tartibini joriy etish orqali korxonalarni davlat tomonidan moliya-kredit mexanizmlari vositasida qo'llab-quvvatlash asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash tushunchasining mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy genezisi ilmiy asoslangan;

davlat tomonidan korxonalarni qo'llab-quvvatlash moliya-kredit mexanizmlarining samaradorlik mezon ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

davlat tomonidan korxonalarni qo'llab-quvvatlash moliya-kredit mexanizmlari yo'nalishlarining nazariy asoslari ilmiy asoslangan;

davlat tomonidan korxonalarni qo'llab-quvvatlashning amal qilish algoritmi ishlab chiqilgan;

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan "Savdoni rivojlantirish kompaniyasi" AJga uning talabnomasiga asosan 5-yil muddatga 2028-yil 1-yanvardan qaytarish sharti bilan 2 foiz stavkada 100 million AQSh dollari miqdorida qo'shimcha mablag' ajratish va bu mablag'larni qishloq xo'jaligi, sanoat va savdo korxonalarining aylanma mablag'larini to'ldirish uchun ajratiladigan kreditlarni moliyalashtirishga tijorat banklariga moliyaviy resurslar ajratish, tijorat banklarining aylanma mablag'larini to'ldirishga ajratiladigan kreditlar uchun kredit summasining 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi), biroq 10 milliard so'mdan oshmagan miqdorda kafillik taqdim etish lozimligi ilmiy asoslangan;

korxonalarining umumiy moliyaviy natijalari va unga ta'sir etuvchi asosiy omillari ko'p omilli ekonometrik modellar asosida tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va boshqa vakolatli vazirlik, qo'mitalar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati korxonalarni qo'llab-qo'llashda moliya-kredit mexanizmlarini samarali foydalanish va bu borada davlat siyosatining samaradorligini ta'minlash jarayonini takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy va soliq tizimiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O'zbekistonda korxonalarni qo'llab-quvvatlashga oid davlatning turli xil siyosati samaradorligini oshirishga, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga erishish, shuningdek, bu boradagi o'quv va ilmiy adabiyotlarini tayyorlashda, shuningdek, mavzuga oid ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

Savdo-sanoat palatasi qoshida tadbirkorlik subyektlariga xalqaro moliya institutlari, xorijiy moliya tashkilotlari va boshqa kredit tashkilotlaridan davlat kafolatisiz mablag'lar jalb qilish bo'yicha konsalting xizmatlar ko'rsatadigan Tadbirkorlarga tashqi moliya bozorlariga chiqishga ko'maklashish markazini tashkil etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 27-maydagi 14-2-01-935-sonli ma'lumotnomasi). Bu taklifning amaliyotga joriy qilinishi korxonalariga nisbatan tarmoq va davlat darajasidagi strategik va taktik yo'nalishlarni to'g'ri va obyektiv belgilash imkonini yaratgan;

tikuv-trikotaj, poyabzal va charm-attorlik sanoati yo'nalishlarida ishlab chiqarish faoliyatini yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun foyda solig'i stavkasini 2 foiz va ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz darajasida belgilash orqali korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash amaliyotini rag'batlantirish bo'yicha ilmiy taklif O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 27-maydagi 14-2-01-935-sonli ma'lumotnomasi). Bu taklifning amaliyotga joriy qilinishi korxonalariga nisbatan rag'batlantiruvchi iqtisodiyotning siyosatning asosiy mazmunini belgilashda, bu boradagi amaliy jarayonlar yo'nalishlarini to'g'ri belgilab olishga xizmat qilgan;

nobank kredit tashkilotlariga jismoniy shaxs bo'lgan ta'sischilardan amaldagiga nisbatan 2 baravar ko'p miqdorda qarz mablag'larini jalb qilishga ruxsat berish tartibini joriy qilish orqali korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilmiy taklif O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 27-maydagi 14-2-01-935-sonli ma'lumotnomasi). Bu taklifning amaliyotga joriy qilinishi korxonalarni davlat tomonidan moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash bog'liq qonunchilik hujjatlarini mazmunan boyitish imkonini bergan;

nobank kredit tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bir yoki bir nechta bitim natijasida nobank kredit tashkilotining ustav fondidagi o'n foizdan yigirma foizgacha tashkil etadigan ulushini bevosita yoki bilvosita olinganda Markaziy bankni xabardor qilish tartibini joriy etish orqali korxonalarni davlat tomonidan moliya-kredit mexanizmlari vositasida qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilmiy taklif O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 27-maydagi 14-2-01-935-sonli ma'lumotnomasi). Bu taklifning amaliyotga joriy qilinishi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga tizimli yondoshish orqali ularga nisbatan davlat siyosatini ishlab chiqish va to'g'ri amalga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Korxonalarni moliyalashtirishning moliya-kredit mexanizmlarining nazariy masalalari”** nomli birinchi bobida korxonalarni moliyalashtirish va uning tashkiliy-huquqiy shakliga bog‘liqligining nazariy asoslari, korxonalarni moliyalashtirishning shakllari, korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy-ijtimoiy genezisi, moliya-kredit mexanizmini amalga oshirishning algoritmi keltirilgan, korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlashga oid ilmiy tadqiqot ishlari nazariy tahlil qilingan, ularga mualliflik ilmiy yondoshuvlari keltirilgan.

Korxonalar faoliyati qilishining maqsadlari turlicha bo‘ladi, ularning aksariyati foyda olishga qaratilgan bo‘ladi, ayrimlarining faoliyatidan maqsad foyda olish emas, balki uning nizomida ko‘rsatilgan faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Demak, korxonalarni moliyalashtirish va uning tashkiliy-huquqiy shakliga hamda moliya tizimining bug‘inlariga ham qisman bog‘liq bo‘ladi.

Korxonalarni moliyalashtirish va uning tashkiliy-huquqiy shakliga bog‘liqligi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashkiliy-huquqiy shaklidan kelib chiqib, ularning moliyaviy asosining vujudga kelishi, moliyaviy mablag‘lardan foydalanish va uni tasarruf etish (mol-mulkni taqsimlash, foydani taqsimlash, ulushlarni boshqaga o‘tkazish va sh.k.) munosabatlari ham korxonalar (tashkilot, muassasa, uyushma, fond)ning tashkiliy asoslaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.


Nazariy jihatdan, “moliyalashtirish korxonalar va tashkilotlarni moliyaviy resurslar (pul) bilan ta’minlash, turli iqtisodiy loyihalardir. U korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari, shuningdek davlat manbalari, hamma darajadagi budjetlar, kredit mablag‘lari, yuridik va jismoniy shaxslarning badallari hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Agar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni moliyalashtirish davlat tomonidan amalga oshirilsa, bu ularning joriy faoliyatini amalga oshirish uchun turli shakllardagi mablag‘larni tekin va qaytarib olinmasdan ta’minlashni nazarda tutadi”⁵.

Tadqiqot ishi doirasida korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llashning iqtisodiy genezisi ko‘rsatib berildi:

Korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy genezisi uch guruhga bo‘linadiki, bu yerda davlat asosiy ishtirokchi va muvofiqlashtiruvchi sifatida namoyon bo‘lishi davlatning iqtisodiyotga aralashuvi muqarrarligi, iqtisodiyotdagi individlarning rivojlanishiga davlatning manfaatiga

⁵ <https://ru.wikipedia.org/wiki/%>.

mos kelishi(davlat bunday qilmasa jamiyat zarar ko‘rishi muqarraaligi), (davlat bunday qilmasa jamiyat zarar ko‘rishi muqarraaligi), biznesga qulay shart-sharoit yaratish davlatning muhim funksiyasi ekanligi, ayrim korxonalar (tarmoq)larni moliyaviy qo‘llashsiz iqtisodiyotni boshqarishning imkoni yo‘qligi hamda rag‘batlantirish mexanizmi-iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim dastagi sifatida namoyon bo‘lishi ijtimoiy-iqtisodiy zaruratga aylanadi.




1-rasm. Korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llashning iqtisodiy genezisi⁶

Davlat tomonidan korxonalarni qo‘llab-quvvatlashning moliya-kredit mexanizmlarining samaradorlik mezon-ko‘rsatkichlari iqtisodiy samara, tashkiliy-huquqiy samara hamda institutsional samarada ko‘rinadi.

Korxonalarni moliyalash jarayoniga qaraydigan bo‘lsak, ular bir butun bo‘lib, moliya-kredit mexanizmlarni vujudga keltiradi.

⁶ Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.



2-rasm. Davlat tomonidan korxonalarni qo‘llab-quvvatlashning moliya-kredit mexanizmlarining samaradorlik mezon-ko‘rsatkichlari⁷

Moliya-kredit mexanizmlari – iqtisodiyotda moliya-kredit resurslaridan samarali foydalanish, qayta taqsimlash va boshqarishni ta‘minlovchi usullar, vositalar, muassasalar va jarayonlar majmui bo‘lib, u bozor munosabatlari sharoitida korxonalar rivojlanishiga ko‘maklashishda, sarmoyalarni rag‘batlantirishda va iqtisodiy barqarorlikni saqlashda asosiy rol o‘ynaydi.

Dissertatsiyaning **“Korxonalarni moliya-kredit mexanizmlarini orqali qo‘llab-quvvatlashning amaliy holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida investitsion siyosat orqali korxonalarni moliyaviy quvvatlash va uning holati, moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llashda soliq instrumentlaridan foydalanish holati hamda moliyaviy perefensiyalar va kreditlash mexanizmlar orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlash jarayoni tahlil qilingan, ular doirasida ilmiy xulosalar olingan.

Davlat rag‘batlantiruvchilik siyosatini yuritadi, buni amalga oshirish jarayonida iqtisodiyotning asosiy tayanchi va qiymat yaratuvchisi bo‘lgan subyektlarni-korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash jarayonlarini amalga oshirishi, tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha yaxlit siyosat olib borishni, uni muntazam rivojlantirib borishni taqozo etadi.

Korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashd davlat tomonidan eng katta masalalardan biri sifatida investitsion siyosat orqali ularning faoliyatiga oid investitsiyalarning yo‘nalishlarini muvofiqlashtirib borish bu boradagi davlatning muhim ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilab oladi.

Korxonalarni moliyalashtirish va ularni qullab-quvvatlashda markazlashtirilgan investitsiyalar birgalikda markazlashmagan investitsiyalar o‘ziga xos rol o‘ynaydi.

⁷ Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda markazlashmagan investitsiyalar doirasida 2022-2024-yillarda korxonalarni moliyaviy qo‘llab quvvatlashning holati tahlili⁸, mlrd so‘m

| Ko‘rsatkichlar | Yillar | | | | |
|---|---------|---------|---------|---------|---------|
| | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
| Jami kapital qo‘yilmalar | 233,186 | 284,418 | 298 772 | 346 848 | 400 318 |
| Shu jumladan: | | | | | |
| Markazlashgan investitsiyalar | 43,399 | 50,617 | 50 767 | 61 480 | 72 378 |
| Markazlashmagan investitsiyalar | 139 236 | 197 196 | 248 006 | 285 368 | 327 940 |
| Shu jumladan: | | | | | |
| Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari | 29 642 | 37 526 | 49 606 | 53 696 | 64 861 |
| korxonalarining o‘z ixtiyorida qoldiriladigan soliqlar | 44 612 | 55 412 | 69 433 | 76 926 | 92 465 |
| To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar | 79 123 | 98 239 | 107 621 | 130 186 | 141 024 |

Yuqorida keltirilgan javdaldan xulosa qilish mumkinki, korxonalarni moliyaviy qo‘llashda markazlashmagan investitsiyalar sifatida tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar mablag‘lari ham fiskal ahamiyatga egadir.

Ma’lumki, mohiyati jihatidan **“to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar** korxonaga to‘liq egalik qiluvchi yoki korxonaga aksionerlik kapitalining 10 foizidan kam bo‘lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya’ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqini ega bo‘lgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidankiritilgan investitsiyalar”⁹ bo‘lib, korxonalarni moddiy texnika bazasini yuksaltirishda ta’sir qiladi, shu jihatdan olganda korxonalarni moliyaviy qo‘llashda uning ulushini oshirib borishga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Korxonalarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishida tarmoqlar va hududlar kesimida investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirish jarayoni ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Chunki, moliyaviy manbalar sifatida kreditlar ham korxonalarni moliyalashtirishda ijobiy ta’sirga ega bo‘lib, ular yirik korxonalarni modernizatsiya qilish, ularni moliyaviy munosabatlarni kengaytirishda oraliq manbalar sifatida yuzaga chiqadi. Darhaqiqat korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlashda boshqa shakllari singari soliq tizimi instrumentlaridan foydalanish ancha samarali hisoblanadi. Chunki, soliqlar iqtisodiyotni rag‘batlantirish funksiyasining mavjudligi soliqqa tortish jarayonida soliq tizimida korxonalariga yon bosish tamoyili qo‘llanilishini taqozo etadi, bu esa iqtisodiyotni tartibga solish va uni rag‘batlantirishning muhim usullari sifatida yuzaga chiqadi.

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Moliya va iqtisodiyot vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy byulletini, 2022, 2023, 2024-yillar uchun.

2-jadval

2021-2025-yillarda respublikamizda tarmoqlar va hududlar kesimida investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish orqali tarmoq korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning maqsadli ko'rsatkichlarining bajarilishi tahlili¹⁰, mln.dollar

| Ko'rsatkichlar | Yillar | | | | |
|---|----------|----------|----------|----------|----------|
| | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
| Jami | 14 275,2 | 16 708,9 | 18 733,0 | 19 354,5 | 20 591,3 |
| shu jumladan tarmoqlar: | 8 218,4 | 9 919,6 | 11 264,8 | 11 139,4 | 10 733,3 |
| “O'zbekneftgaz” AJ | 17,272 | 1 090,5 | 915,6 | 381,7 | 282,4 |
| “Hudud gazta'minot” AJ | 0,0 | 240,8 | | | |
| “O'ztransgaz” AJ | 1,365 | 394,0 | 341,3 | 136,7 | 58,5 |
| “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ | 3,271 | 170,5 | 583,2 | 811,9 | 97,0 |
| “O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ | 2,101 | 133,3 | 309,8 | 195,2 | 162,5 |
| “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ | 3,672 | 154,5 | 164,0 | 169,0 | 185,0 |
| “O'zbekgidroenergo” AJ | 2,017 | 185,4 | 196,4 | 207,3 | 195,0 |
| Hududlar | | | | | |
| Jami: | 53,561 | 6 789,4 | 7 468,2 | 8 215,1 | 9 858,1 |
| Shu jumladan: | | | | | |
| Toshkent viloyati | 336,0 | 572,6 | 621,5 | 683,7 | 820,4 |
| Toshkent viloyatining jami hududlardagi ko'rsatkich bo'yicha ulushi (%) | 6,2 | 8,4 | 8,3 | 8,3 | 8,3 |

Soliq tizimi orqali korxonalarni moliyaviy qo'llab quvvatlashda soliq imtiyozlari, soliq pereferensiyalari, QQS bo'yicha salbiy farqlarni qoplab berish (to'lab berish), soliq qarzlarini kechish, soliq to'lovlari muddatini uzaytirish va shu kabi instrumentlardan foydalanishni bildiradi.

3-jadval

Korxonalariga qo'shilgan qiymat solig'idan qaytarib berish orqali ulardagi salbiy farq summalarini qoplash holatining tahlili, mlrd. so'm¹¹

| Ko'rsatkichlar | Yillar | | | |
|---|----------|----------|----------|----------|
| | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
| QQS bo'yicha tushumlar | 63 098,9 | 71 501,2 | 79 531,3 | 82 886,9 |
| Shu jumladan: | | | | |
| Davlat soliq organlari tomonidan undirilgan | 25 574,4 | 32 812,1 | 33 983,5 | 36 279,0 |
| Bojxona organlari tomonidan undirilgan | 37 524,5 | 38 689,1 | 45 547,8 | 46 607,9 |
| Soliq to'lovchilarga qoplab berilgan QQS | 14 417,2 | 19 311,8 | 19 666,7 | 22 803,4 |
| Shu jumladan: | | | | |
| Nollik stavka bo'yicha | 7 408,7 | 9 829,4 | 10 284,2 | 12 117,6 |

Ma'lumki, amaldagi tartibga ko'ra¹², korxonalariga ularni moliyaviy qo'llash hamda ularda QQSni to'lash bilan bog'liq zararlarni belgilangan tartibda qoplab berish maqsadida qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy farq summasini qoplash,

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Moliya va iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-dekabrda 72-sonli qarori asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹¹ Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹² O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-sonli qarori.

shu jumladan, boshqa soliqlar bo'yicha qarzdorlikni uzish hisobiga qoplash amalga oshiriladi.

Darhaqiqat, mahsulotni tayyorlashdan tortib uni sotish jarayonigacha bo'lgan oraliqda ularda QQS bo'yicha farq summalar paydo bo'ladi, buning tabiiy ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lganligi tufayli uni davlat tomonidan bu kabi korxonalarni moliyaviy qo'llash va ko'rilgan zararlar miqdorini qoplab berish maqsadida QQS bo'yicha farq summalarini qaytarish mexanizmidan foydalaniladi.

Agar tahlil sifat ko'rsatkichlari ya'ni foydalanilgan soliq summasi jihatidan tahlil qiladigan bo'lsak, bunda QQS bo'yicha foydalanilgan soliq imtiyozlari eng katta ulushni egallagan. Ya'ni, bu soliq turi bo'yicha 2020-yilda 24643,3 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu jami foydalanilgan soliq imtiyozlari (31065,6)ning 77 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichni 2024-yilgi holatni ko'radigan bo'lsak, foydalanilgan soliq imtiyozlari summasi 61 354,1 mlrd.so'mni tashkil etgan holda 2020-yildagi ushbu ko'rsatkichga nisbatan 2,5 barobarga oshgan, 2024-yildagi jami foydalanilgan soliq imtiyozlari umumiy summasi (72 565,8)ning 84,7 foizini tashkil etgan. Demak, xulosa qilish mumkinki, soliq imtiyozlaridan qaysi hududda korxonalarining soliq imtiyozlari orqali moliyaviy qo'llanilishi aynan soliq turining qaysi turini to'lovchilar sonining miqdoriga bog'liq bo'ladi. Ya'ni, QQS to'lovchilar soni qaysi hududda ko'p bo'lsa, o'sha hududda soliq imtiyozlari orqali moliyaviy qo'llanilish darajasi ham yuqori bo'ladi.

Demak, QQS budjetga to'lanmagan summani asossiz hisobga (zachet) olishga yo'l qo'ymaslik hamda soliq bazasini aniqlash uchun kameral soliq tekshiruvi doirasida soliq organlarida mavjud bo'lmagan ma'lumotlarni soliq to'lovchidan talab qilib olish va ogohlantirish muddatida kamchiliklari ixtiyoriy bartaraf etilmagan taqdirda budjetga undirib olish lozim bo'ladi.

Iqtisodiyotni tartibga solish va uni rivojlantirish uchun rag'batlantirishda davlatning moliyaviy instrumentlaridan biri sifatida subsidiyalash tizimida hamda korxonalarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda subsidiyalash muhim rol o'ynaydi.

4-jadval

Toshkent viloyatida joylashgan korxonalarini Davlat budjetdan berilgan subidiyalar tahlili¹³ (mln so'm)

| Subsidiya olgan korxonalar nomi | Yillar | | | | |
|--|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|
| | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
| “Angren issiqlik energiyasi” DUK | 18 881 | 29 259 | 26 301 | 27 558 | 48 487 |
| Toshkent viloyati “issiqlik manbai ishlab” ICHK | 4 671 | 2 247 | 4 475 | 5 742 | 6 406 |
| “Chirchiq issiqlik energiyasi ishlab chiqarish korxonasi “ DUK | 3 355 | 2 486 | 2 504 | 937 | 4 113 |
| “OLMALIQ ISSIQLIK MANBAI” MCHJ | 0 | 0 | 0 | 4 832 | 36 580 |
| Angren sh “kommunal xizmat korsatish” DK | 1 844 | 2 625 | 2 655 | 0 | 0 |
| Toshkent viloyatida joylashgan korxonalarga jami Davlat budjeti (mahalliy budjetdan) dan berilgan subidiyalar summasi | 28 751 | 36 617 | 37 546 | 41 437 | 97 409 |

¹³ O'zbekiston Iqtisodiyot va vazirligi hamda Toshkent viloyati boshqarmasining ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan hisoblab chiqilgan.

Tadqiqot obyektimiz bo‘lgan Toshkent viloyatida joylashgan korxonalar jami Davlat budjeti(mahalliy budjetdan) dan berilgan subsidiyalarning summasi 2020-yilda umumiy hajmda 28 751 mln.so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib uning miqdori qariyb 3,5 barobarga oshib, 97 409 mln.so‘mni tashkil etgan va uning miqdori tahlil qilinayotgan yillar davomida oshib borishi boshqa viloyatlardan farqli ravishda bu hududdagi korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlanib kelinayotganligi ko‘rish mumkin. Bunday korxonalar sifatida infratuzilma yo‘nalishdagi korxonalar nisbatan subsidiyalash tizimi qo‘llanilayotganligi keltirish mumkin.

5-jadval

Toshkent viloyatida joylashgan korxonalar litsenzion to‘lovlar bo‘yicha berilgan moliyaviy imtiyozlar tahlili¹⁴ (mln. so‘m)

| Korxonalar nomi | Yillar | | | | |
|---|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
| | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
| “Alkim tekstil” MCHJ QK | 0,0 | 0,0 | 17,1 | 15,0 | 15,0 |
| “Textile mill tashkent” MCHJ QK | 20,0 | 30,0 | 0,0 | 0,0 | 54,1 |
| “Promeat group corp” MCHJ | 15,0 | 35,0 | 45,0 | 0,0 | 29,2 |
| “Osborn textile” MCHJ XK | 25,0 | 30,0 | 30,0 | 0,0 | 40,3 |
| “Alta-profil” MCHJ | 12,0 | 35,0 | 16,0 | 0,0 | 40,0 |
| “Promxim impex” MCHJ | 12,0 | 0,0 | 31,0 | 0,0 | 69,0 |
| “Holis baraka agro food” MCHJ | 0,0 | 0,0 | 31,0 | 31,0 | 34,0 |
| “Global komsco daewoo” MCHJ | 0,0 | 11,2 | 0,0 | 14,4 | 38,3 |
| “Bo'stonliq-plasteks” MCHJ | 30,0 | 18,0 | 25,0 | 45,0 | 78,0 |
| Toshkent viloyatida joylashgan korxonalar jami litsenzion to‘lovlar bo‘yicha berilgan moliyaviy imtiyozlar summasi | 165,1 | 269,1 | 349,1 | 415,9 | 891,1 |

Toshkent viloyatida joylashgan korxonalar jami litsenzion to‘lovlar bo‘yicha berilgan moliyaviy imtiyozlar summasi 2021-yil 165,1 mlrd.so‘m bo‘lgan bo‘lsa, keyingi yillarda uning miqdori oshib borgan, 2024-yilga kelib uning miqdori

891,1 mlrd.so‘m bo‘lgan va 2021-yilga nisbatan 5,3 martaga oshgan, bu holat korxonalar berilgan bunday moliyaviy imtiyozlar hisobiga ularda qo‘shimcha mablag‘lar tejab qolganligi hamda moliyaviy resurslarining iqtisod qilinishiga olib kelgan.

Korxonalar berilgan moliyaviy imtiyozlar orasida bojxona kvotalari bo‘yicha imtiyozlar ham katta ahamiyatga egadir. Milliy iqtisodiyotimizda tashqi savdo aylanmasi jarayonini rag‘batlantirish orqali birinchidan, import mahsulotlariga tabiiy ravishda bog‘liq bo‘lgan faoliyatni rag‘batlantirish bo‘lsa, boshqa tomondan korxonalarni boj tizimi orqali ularning faoliyatini imkon qadar rag‘batlantirishni ta‘minlash hisoblanadi. Bu kabi bojxona kvotalari bo‘yicha imtiyozlarni korxonalar qo‘llash ayrim turdagi import materiallariga bog‘liq bo‘lgan mahsulotlarning nisbatan tannarxining kamayishiga erishiladi, buning iqtisodiy va sotsial ahamiyati bo‘lib, iste‘mol indeksiga ta‘sir qiladi.

¹⁴ O‘zbekiston Iqtisodiyot va vazirligi hamda Toshkent viloyati boshqarmasining ma‘lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan hisoblab chiqilgan.

**Toshkent viloyati korxonalariga nisbatan qo‘llanilgan bojxona kvotalari
bo‘yicha ta’rif imtiyozlari tahlili¹⁵ (mlrd.so‘m)**

| Yo‘nalishlar | Yillar | | | | |
|---|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
| Tarif imtiyozlari bo‘yicha (bojxona boji) | 649,6 | 466,0 | 947,1 | 1 571,9 | 1 680,7 |
| Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha | 1 867,6 | 2 038,7 | 2 234,1 | 2 237,9 | 2 044,2 |
| Aksiz qiymat solig‘i bo‘yicha | 38,6 | 0,0 | 2,0 | 1,0 | 20,5 |
| Bojxona yig‘imlarini to‘lash bo‘yicha imtiyozlar bo‘yicha (boshqalar bilan) | 6,1 | 48,6 | 150,8 | 331,0 | 272,3 |
| Tarif preferensiyalari bo‘yicha | 425,3 | 564,5 | 724,0 | 739,7 | 880,6 |
| Jami: | 2 987,20 | 3 117,80 | 4 058,00 | 4 881,50 | 4 898,30 |


Ta’rif imtiyozlari esa, korxonalar tomonidan avval amalga oshirgan bojxona bojini qaytarish, bojxona boji stavkasini pasaytirish va bojxona bojini to‘lashdan ozod etish tarzida tarif imtiyozlari berilishi tarzidagi moliyaviy imtiyozlardir. Demak, milliy iqtisodiyotimizda korxonalarni moliya-kredit mexanizmi orqali qo‘llanilish amaliyotida boshqa moliyaviy instrumentlardan tashqari bojxona to‘lovlari bo‘yicha yengilliklar ham ma’lum ma’noda korxonalarining moliyaviy jihatdan mustahkamlanishiga ijobiy ta’sir qilib kelmoqdaki, bunda soliq, moliya va bojxona qonunchiligining shaffof tarzda qo‘llanilishi katta ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari”** deb nomlangan bo‘lib, unda korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash omillarining ularning moliyaviy natijalariga ta’sirini baholashning ekonometrik tahlili amalga oshirilgan, korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash borasidagi amaliy muammolar mazmuni ochib berilgan hamda bu jarayonni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflarning asoslari keltirilgan.

3-rasmda keltirilganidek, tadqiqot ishi doirasida **“Korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlashning bosqichli algoritmi”**ni ishlab chiqilgan. Bu algoritmnining asosiy mazmuni bir necha bosqichlarni qamrab oladiki, ular: jarayonni baholash, tayyorgarlik, amalga oshirish va samaradorlik bosqichlaridan iborat bo‘lib, uning mohiyati shundan iboratki, korxonalarni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llashni amalga oshirishda ma’lum bir tizimli jarayonlarni amalga oshirishning algoritmi tarzida kechishini taqozo etadi, ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish bu boradagi davlat siyosatining samaradorligini ta’minlaydi.

Tadqiqotchining fikricha, bu bosqichlar korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojni aniqlash, korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlash jarayonini ko‘rib chiqish, korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.



3-rasm. Korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashning bosqichli algoritmi¹⁶

¹⁶ Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

Jarayonini amalga oshirish, korxonalarni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashni monitoring qilish va samaradorlikni baholashlardan iborat bo'lib, bularning har biri 3-rasmda keltirilganidek, kichik elementlardan iborat bo'ladi, bu elementlarning har birini ilmiy asosda amalga oshirish boradagi davlat siyosatining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.


